

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQANI DAYLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat Universiteti
rektori



R.Xalmuradov

2023 yil

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA “O'ZBEKISTON TARIXI”
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(majburiy fan bo'yicha)

Samarqand – 2023

Dastur Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘quv – uslubiy Kengashining 2023-yil “___” ____dagi ___ – sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasи mudiri, p.h.d. Sh.Hamroqulova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti, t.f.d.R.Xoliqulov

Taqrizchilar:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasи dotsenti, p.h.d S.Usarov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti G.Normurodova

KIRISH

Mazkur dastur ko‘zi ojiz abituriyentlar uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari hamda umumta’lim maktablarining “O‘zbekiston tarixi” fani dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, “Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi”, “O‘rta asrlarda O‘zbekiston tarixi”, “Yangi va eng yangi davrda O‘zbekiston tarixi“ davrlaridan abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

O‘zbekiston tarixi (fani bo‘yicha tuzilgan ushbu dastur bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo’lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda tarix ta’limi kasbi bo‘yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va abituriyentlarning tarix ta’lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan. Dastur ko‘zi ojiz abituriyentlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Davlat ta’lim standartlari talablari asosida tuzilgan. O‘zbekiston tarixi qismida asosan xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini xolisona o‘rganish, mamlakatimizning demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o‘rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu dastur ko‘zi ojiz abituriyentlar uchun mo‘ljallangan. Ushbu dastur bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning Tarix fanlari bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi

Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar

O‘zbekiston tarixi fanidan imtixonibor boshqa ta’lim yo‘namishlari bo‘yicha imtihon topshiruvchi abituriyentlar O‘zbekiston tarixidan: O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi asosiy nazariy metodologik masalalar. Markaziy Osiyo ibridoib jamiyat davrida. Urug‘chilik jamoalarining makonlari. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Qadimgi Sug‘diyona (So‘g‘d), Baqtriya, Xorazm. “Avesto”. Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylarga qarshi mustaqillik uchun kurashi. Makedoniyalik Aleksandr istilosini va Spitamen qo‘zg‘oloni. O‘rta Osiyo Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya davlati tarkibida. Qang‘. Parkana. Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va uning roli. Kushon podsholigi. Ilk o‘rta asrlar davlatlarining shakllanishi (Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi). O‘rta Osiyo xalqlarining arablar istilosiga qarshi kurashi. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Movarounnahr Somoniylar davrida. G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Qoraxoniylar bosqini va Xorazmshoh-anushteginlar davlatining yuksalishi.

XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi xususiyatlari. O'rta Osiyoda uyg'onish davrida fan va madaniyat. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining kurashi. Movaraunnahr Chig'atoy ulusi tarkibida. Amir Temur davlati. Movarounnahr Temuriylar davrida.

Abituriyent. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davlatlari. XVII-XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot. O'rta Osiyo xonliklarining ma'muriy boshqaruvi tizimi, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, xo'jaligi. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining rivojlanish xususiyatlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq va boshqa turkiy ko'chmanchi qabilalar yozma tarixiy manbalarda. Qoraqalpoqlarning shakllanish jarayonlari. XVIII-XIX asrlarda quyi Sirdaryo qoraqalpoqlari. Qoraqalpoq madaniyati. O'rta Osiyo xonliklarining savdo-diplomatik aloqalari. XVI-XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati. Ingliz-rus raqobati. O'rta Osiyoga Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. O'rta Osiyonni Rossiya tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. 1873-1876 yillarda Qo'qon xonligidagi xalq qo'zg'oloni. Turkistonning agrar va sanoat rivojlanishidagi muammolar va Rossiya imperiyasi siyosati. XIX asr oxirida Turkistonda milliy ozodlik kurashlari. XIX asr oxiri -XX asr boshida Turkiston xalqlari madaniyati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Milliy ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik. Turkiston birinchi jahon urushi yillarida. 1916 yil milliy ozodlik kurashi. 1917 yil siyosiy jarayonlarning Turkistonga ko'rsatgan ta'siri. Turkistonda sovet tuzumini o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 1917-1924 yillarda Buxoro va Xiva xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. 1924 yil O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidagi muammo va ziddiyatlar. O'zbekiston totalitar tuzum sharoitida - ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Siyosiy qatag'onlar va ularning oqibati. Qoraqalpog'iston ASSRning O'zSSR tarkibiga kiritilishi. O'zbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: yutuqlar va ziddiyatlar. Milliy ziyolilarni qatag'on qilinishi. Madaniy hayotda "sotsialistik realizm"ni hukmronligi. O'zbekiston "Qayta qurish" yillarida. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi - O'zbekiston tarixidagi yangi tarixiy bosqich. O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va mustaqilligi. O'zbekistonda mustaqil demokratik davlat sifatida siyosiy tuzumning shakllanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqil Qoraqalpog'iston tarixi, uning davlat tuzumi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga qaratilgan siyosat. Iqtisodiy islohotlar: bosqichlari va natijalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va uni bartaraf qilishga qaratilgan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirilishi. O'zbekistonning ma'naviy hayoti. O'zbekistonning jahonda va MDHda egallagan mavqeい. Mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari. Mustaqil O'zbekiston-demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi yo'lida. 1990-2020 yillarda jaxon mamlakatlarining integratsiyalashuvi jarayonlari. Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Xalqaro terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH **M E Z O N I**

Ko‘zi ojizlar uchun ijodiy imtixon 5 ballik tizimda baholanadi.
Ko‘zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtihon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abiturientning javobi 5 (“a’lo”)ga baholanishi uchun:

- Abituriyent tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo‘lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;
- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak.
- Javoblarda tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan jo‘g‘rofiy hudud ham aniq ifodalanishi zarur.
- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko‘ra, ko‘proq aniq faktlar hisobga olinadi.
- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak.
- Qo‘srimcha savollarga ham to‘liq va to‘g‘ri javob berish lozim.

2. Abiturientning javobi 4 («yaxshi»)ga baholanishi uchun:

- Tarixning hamma bosqichlari bo‘yicha umumiy bilimga ega bo‘lishi va unidadir izohlay olishi lozim;
- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo‘sib asoslay olishi kerak;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;
- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining eng yangi tarixi (1991-2020 yillar) bilan bog‘liq voqealariga aniq javob bera olishi kerak.
- Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo‘srimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

3. Abiturientning javobi 3 («o‘rta»)ga baholanishi uchun:

- Abituriyent belgilangan savollarga maktab tarix fani dasturi bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘lib, javoblarni har tamonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;
- Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;
- Javob berayotganda bo‘lib o‘tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

4. Abiturientning javobi quyidagi hollarda 2 (“qoniqarsiz”)ga baholanadi:

- Abituriyent tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kunimizgacha bo‘lgan tariximizni asoslay olmasa;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davlatchilik tarixidan etarlicha ma'lumotga ega bo‘lmasa;
- Tarixiy voqealarni aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;
- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;

- Tarixiy mavzular bo'yicha berilgan qo'shimcha savollarga mujmallik va noaniqlik bilan javob berilsa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Tarix fani bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lмаган holda tashkil etiladi.

Tarix yo'nalishi bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abiturientlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abiturientning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma yuz abiturientning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

M.Boboxonov

